



UDK: 821.512.133.09:82.091

Gavharoy KAMOLDINOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: gavharishoda3@gmail.com

SULTON MAS'UD MIRZO SHOHIIY IJODIDA NAVOIYGA IZDOSHLIK

Annotatsiya

Ushbu maqolada nazira va tatabbu' singari mumtoz adabiyot shoirlari foydalangan usullar haqida so'z boradi. Nazariy tushunchalardan so'ng misol sifatida temuriylar sulolasiga mansub Shohiy taxallusi bilan she'rlar yozgan Sulton Mas'ud ijodidan namunalar beriladi. Shoirning Navoiy ijodidan ilhomlanib yozgan she'rlari atroflicha tahlil ostiga olinadi. Ular badiiy jihatdan tahlil qilingach, nazariy tomondan ham tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: nazira, tatabbu', temuriylar sulolasi, Sulton Mas'ud, devon, g'azal, taxmis, tarji'band, ruboiy, fard, qofiya, mutlaq qofiya, murdaf qofiya, radif, tabdil, matla', vazn, raviy, ramal.

ANALYSIS OF THE POEMS OF SULTAN MAS'UD MIRZO SHAHIIY WRITTEN UNDER THE INFLUENCE OF NAVOI

Annotation

This article discusses the methods used by poets of classical literature, such as nazira and tatabbu'. After theoretical concepts, examples from the work of Sultan Mas'ud, who wrote poems under the nickname Shahiy, belonging to the Timurid dynasty, are given as an example. The poet's poems, inspired by Navoi's work, are subjected to a detailed analysis. After analyzing them artistically, they are also studied theoretically.

Keywords: nazira, tatabbu', divan, ghazal, takmis, tarji'band, rubaiy, fard, rhyme, mutlaq rhyme, murdaf rhyme, radif, tabdil, matla', wazn, rawiy, ramal.

АНАЛИЗ СТИХОТВОРЕНИЙ СУЛТАНА МАСЪУДА МИРЗА ШАХИЙ, СОЗДАННЫЙ ПОД ВЛИЯНИЕМ НАВОИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются методы классических поэтов, таких как Назира и Татаббу. Следуя теоретической основе, приводятся примеры из произведений Султана Масуда, писавшего стихи под псевдонимом Шахи и принадлежавшего к династии Тимуридов. Подробно анализируются стихи поэта, вдохновлённые произведениями Навои. После этого художественного анализа проводится также их теоретическое изучение.

Ключевые слова: Назира, татаббу, деван, газель, такмис, тарджибанд, рубайи, фард, равий, рифма, мутлак рифма, мурдаф рифма, радиф, табдил, матла', вазн, рамал.

Kirish. Sharq adabiyotida nazira va tatabbu'lar alohida mavqega ega. Shoirlar o'zi uchun salaf hisoblagan, she'riyati alohida e'tiborini tortgan ijodkorlarga ergashib turli xil janrdagi asarlar bitishgan. Bu uslub, qofiya, radif, vazn jihatidan ba'zan o'xshash, ba'zan esa farqli hisoblangan. Bu xususiyatlari bilan ular alohida ajralib turgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlar. Ba'zi adabiyotshunos olimlar tomonidan nazira va tatabbu' bir-biridan farqlangan holda o'rganilgan. Aslida esa ularning mohiyati deyarli bir xil. Tatabbu' – arabcha “bir narsaning izidan borish, ergashish” degan ma'nolarni bildirib, biror she'rning uslubi, vazni, qofiyalari va ba'zi san'atlarni saqlagan holda she'rga javob qilish tushuniladi. Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida o'z salafariga ergashgan holda bitilgan she'rlarga tatabbu' bitganligini ta'kidlab, quyidagilarni bitadi: “Faqir ikkalasi buzurg'ori rafe'miqdorg'a niyozmandlig' va gadolig' yuzidin tatabbu' qilibmen [1].

Nazira ham arabcha “o'xshash narsa, o'xshatish, nusxa” degan ma'nolarni bildirib, Sharq adabiyotida qo'llanilgan an'anaviy usullardan biri hisoblanadi. Uning mohiyatida ham o'tgan yoki zamondosh adib asariga o'xshatma tariqasida yozilgan asar tushuniladi. Mohir tatabbu'navis va nazirago'y ijodkorlar ma'lum bir asarga ijodiy yondashgan holda shu asar mavzusini boyitish, yangi motivlar va g'oyalar qo'shish, obrazlar tizimini yangilagan holda yangi bir asarni bunyod qilishgan. Ushbu usullar xususiyatini Shohiy taxallusi bilan she'rlar yozgan, temuriylar

sulolasiga mansub Sulton Mas'ud Mirzoning Navoiyona ruh bilan yozilgan she'rlari misolida ko'rib chiqamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Temuriylar sulolasining vakillaridan biri Sulton Mas'ud Abu Saidning nabirasi bo'lib, Sulton Mahmud Mirzoning o'g'illaridan biridir. Ijodkorlik qobiliyati bilan Navoiy e'tiborini jalb qilgan shahzodaning shoirliqi haqidagi fikrlar ilm ahliga X.Ismatullayevning “O'zbek tili va adabiyoti” jurnalida 1972-yilda e'lon qilingan. Olim o'z maqolasida amerikalik turkolog Yanosh Ekman Turkiyada e'lon qilingan to'plamda “Bilinmayan bir chig'atoy shoiri Shohiy va devoni” maqolasi mazmunidan xabar beradi. Unga ko'ra, Ekman 1971-yilda Shohiyning “India Office” kutubxonasida chig'atoycha qo'lyozmalar orasidan topgan devonidan 25 ta g'azal va 4 ta ruboiyni ingliz tiliga so'zmaso'z tarjima qiladi [2].

Ekman bu qo'lyozmalarni hijriy 1157, milodiy 1745-yilda hamda hijriy 1190, milodiy 1776-yilda ko'chirilgan nusxalardan foydalanganligini aytadi. Olim ikkala qo'lyozma mundarijasini bir xil ekanligini ta'kidlaydi va she'rlar Husayniy, Zahiriddin Muhammad Bobur devonlari bilan bir muqovada kitobat qilinib, yaxlit raqamlanganligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tadi.

Mustaqillik yillarida Abdurashid Abdug'afurov Sulton Mas'udning o'zbek tilidagi devon nashrini 2001-yilda “Sulton Mas'ud Mirzo Shohiy” nomi ostida nashr ettiradi. Qizig'i shundaki, olim bu nashrni tayyorlashda “India Office” kutubxonasida saqlanayotgan nusxaga yondashmagan, umuman boshqa qo'lyozmadan foydalanadi. Buni ba'zi

o'rinlarda olimning ham o'zi to'xtalgan o'rinlarda ko'rishimiz mumkin. Unda aytiladiki, Shohiyning "India Office" kutubxonasi saqlanayotgan devoni mukammal emas. Sababi

*qo'lyozmada debocha yo'q;

*to'rttagina she'r namunalari uchraydi, shuningdek, Shohiyning devondan tashqarida qolgan ijod namunalari uchraydi;

*"alif" harfiga 28, "re" harfiga 10, "lom" harfiga 15 g'azal bitilgan bo'lsa, bir qator harflarga (Ch, D, Z, F, K va b.q) faqat bittadan namuna uchraydi. Umuman olganda, "nun" harfiga 14 g'azal bo'lgani holda "mim"ga hech qanday she'r uchramasligi devonning mukammal bo'lmagan jihatlari ko'rsatadi (sababi olim foydalangan qo'lyozmada "mim" harfiga ko'plab g'azallar bitilgan;

* shuningdek, Alisher Navoiy va Husayniy Boyqaro g'azallariga bog'langan o'ndan ortiq taxmislar mavjudligi va u bugungi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoshida saqlanayotgan 11444 inventar raqami ostida saqlanib kelinayotgani haqida ma'lumot beriladi. Biroq bu taxmisni ham Abdug'afurov nashrga tayyorlagan devonda ham uchratmaymiz. Sababi sifatida olim quyidagi fikrlarni keltiradi va ba'zi bandlarni devon kirish qismida aytib o'tadi: "... hajman juda katta qo'lyozmaning xuddi shu sahifalarini havaskor kotib ko'chirgan bo'lishi mumkin. Chunki taxmislar matnida jiddiy chalkashliklar, ko'plab nuqsonlar va pala-partishliklarga yo'l qo'yilgan, radif va qofiyalar almashib ketgan, mazmun va badiiyat qo'pol ravishda buzilgan" [3].

Tahlil va natijalar. Abdurashid Abdug'afurov devonni nashrga tayyorlar ekan, unga Shohiyning 153 ta g'azal, 37 ta ruboiy, bitta 11 bandli tarji'band, 19 ta fard (mufradot) kiritganligini ko'rishimiz mumkin. She'rlar bilan tanishish jarayonida unda bevosita va bilvosita Navoiy, shuningdek, ijodining ta'siri borligini sezamiz. Navoiyning mashhur "... deyin" radifli g'azaliga yozilgan tatabbu' fikrimizni isbotlaydi. G'azal matni quyidagicha:
Ul vafosizning ko'ngulga muncha nozinmu deyin?!
Necha noz etgan soyi ko'nglum niyozinmu deyin?!

Oshkora g'orati din aylabon men telbadin,
Yuz yoshurub ul parining ihtirozinmu deyin?!

So'rsalarkim, holig'a ne nav' aylab iltifot,
Javri ko'pinmu deyin yo mehri ozinmu deyin?!

Bir soridin aylayin izhor jonim kuyganin,
Bir sori g'amgin ko'ngul so'zu gudozinmu deyin?!

Demangizkim, "Holatingni oshkor et el aro!"
Shohiy devonadek har qayda rozinmu deyin?!

Navoiyning 7 baytli g'azalidan ta'sirlangan holda yozilgan she'r Shohiyda 5 bayt. Ko'rinib turganidek, radif, qofiyadosh so'zlar o'xshash va hatto raviy uchun tanlangan harfni ham Navoiyga hamohang tarzda bitgan.

Shohiyning Navoiy ijodidan bevosita ta'sirlanish darajasini belgilashda quyidagi o'rinlarni keltiramiz. Shohiy devonining 81-g'azali sifatida keltirilgan:

Vahki, umrim zoye o'tti borcha nodonlikda, hayf,
Qolg'onin ham sarf qilg'umdur pushaymonlikda hayf
matla'si bilan boshlanuvchi g'azalini tazminning go'zal namunalaridan deyish mumkin. Chunki Navoiy ijodida shunday matla' bilan boshlanuvchi she'r "G'aroyib us-sig'ar" [4] tarkibida 303-g'azal sifatida qayd etilgan.

Shohiy devonidagi 49-g'azal sifatida e'tirof etilgan
Qaysi gulshan gullari gulbargi xandoningcha bor?!
Qaysi bo'ston sarvi ham sarvi xiromoningcha bor?!

Bo'la olmas yangi oy mushkin hiloling birla teng,

Mehri xashon ul qachon mehri duraxshoningcha bor?!

Har ne dardekim falakdin kelsa munglig' jonima,
Desa bo'lg'aymu onikim, dardi hijroningcha bor?!

Borma deb xo'blar sori nega, ko'ngul, bas qilmadim,
Har sorikim borsang emdi bora olg'oningcha bor!

Demakim, Shohiy suxandon erdi Xusrav dahr aro,
Qaysi bir Xusrav sening shohi suxandoningcha bor?!

Navoiyning ikkinchi devoni sanalgan "Navodir un-nihoya" tarkibida 93-g'azal sifatida shunday matla'li g'azal keltirilgan. G'azal quyidagicha:

Qaysi to'bi jilvasi sarvi xiromoningcha bor,
Qaysi kavsarning ziloli obihayvoningcha bor.

G'unchada gulbargdek til, joladek tish dog'i yo'q,
Desa bo'lg'aymu onikim la'li xandoningcha bor.

Qayda sunbuldin nasim esgach kirar jism ichra xux
Kim, degaysen onikim zulfi parishoningcha bor.

Aylamas ko'z mardumi har ko'z quyosh ichra vatan,
Ani dey olmonki xoki anbarafshoningcha bor.

Novak ochmas gar to'shar jon rishtasi ichra girih,
Demak oni bo'lmag'aykim no'gi mujgoningcha bor.

Demakim, ko'nglunga qo'yg'um zulm ila dog'i ajal,
Sen gumon qilma anikim, dog'i xijroningcha bor.
Ey ko'ngul, qoningni istarsen tobonig'a xino,
Ko'zlarim xunobi rangi ham sening qoningcha bor.

Urma himmat lofini olingda bu toqi sipehr,
Faqr ko'yida agar o'z ganji vayroningcha bor.

Ey Navoiy, istasang, davr ahli zulmidin xalos,
Ur fano dashtida gomu bora olg'oningcha bor [5].
Shohiyning yuqoridagi nazirasi shoirming yuqori ijodiy yutuqlarga erishganini ko'rsatadi. Ularda nafaqat navoiyona mazmun va ruh, ham shaklan, ham badiiy san'atlar uyg'unligini, balki shoir kayfiyati va g'azali ohangini to'la saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Har ikki g'azal ham aruzning ramali musammani maqsur vaznida, foilotun-foilotun-foilotun-foilon afoylida yozilgan. Taqte'si ham shunga mos -V- - /-V- - /- V - - /- V ~ shaklida.

Qofiya tuzilishini o'rganar ekanmiz, ushbu ijodkorlarda qofiyani hosil qilishga sabab bo'lgan raviy (tirgak tovush) n harfi bo'lib, qofiyaning tuzilishiga ko'ra, mutlaq, o'zak tarkibiga ko'ra esa murdaf turi qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Shuningdek, Shohiy she'rlarini o'rganish jarayonida "...ey rafiq" radifi ostida jami 3 ta g'azal yozganligi ma'lum bo'ldi. Navoiy ijodida ham xuddi shu radifda bitilgan g'azallar mavjud bo'lib, "Badoye ul bidoya"ning 332-tabdili sifatida, "G'aroyib us-sig'ar"da esa 311-raqam ostida quyidagi matla'dagi g'azal kiritilgan:

Bo'lmas ermish dilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq!
Gar kishi derkim: bo'lur, tutma musallam, ey rafiq! [7].

Navoiyning ushbu g'azali 9 baytdan iborat. Bundan tashqari, "Navodir un-nihoya"ning 405-g'azali sifatida "G'aroyib us-sig'ar"ning esa 321-tabdili sifatida keltirilgan she'r ham "...ey rafiq" radifi ostida bo'lib, matla' quyidagicha:

Kimki vasli ichra yoqsang, sham' ulfat, ey rafiq,
Ko'z tut ul sham' o'tidin- o'q dog'i furqat, ey rafiq [8].

Shohiy devonining 82, 83, 84- raqamlari ostida ham ...ey rafiq radifi ostida g'azallar berilgan bo'lib, she'rlar matnini xuddi shu raqamlar ketma-ketligida keltirdik:

Vah, yana bo'ldum biravga zoru shaydo, ey rafiq,
Kim, bir andoq bo'lmag'ay olamda shaydo, ey rafiq.
Bir pari savdosi birla, vah, yana devonaman,
Tushgali boshimg'a ishqidin bu savdo, ey rafiq.
Ohu vovayloki, bo'ldum yuz balog'a muftalo,
Bilmayin to yuziga qildim tamosho, ey rafiq.
Vah, bu yanglig'kim, qilibmen ixtiyori dardi ishq,
Oqibat bo'lg'um durur ishqida rasvo, ey rafiq.

Asru beparvo erur ul bevafo, oning uchun,
Aylamas manga vafo, holimg'a - parvo, ey rafiq.
Xastamen yuz dard ila, holimg'a parvo qilmadi,
Notavonin so'rmas ermish ul Masiho, ey rafiq.
Xo'blardin javr chekmak kelsa, Shohiy, vah, yana,
Topmadim dard ahlidin o'zumga hamto, ey rafiq.

Qasdi jonim qildilar chun ahli davron, ey rafiq,
Hojat ermasdur madad qilmoqqa hijron, ey rafiq.
G'am sipohi poymolidin hazin jismim mening,
Ohkim, bo'ldi qaro yer birla yakson, ey rafiq.
Ko'nglum uyini falak bedodi andoq buzdikim,
Yana ul vayronani tuzmak ne imkon, ey rafiq.
Xonumon tarkini qilg'on bor ekin ko'b dahr aro,
Lek mendek yo'q aloxonu alomon, ey rafiq.
Besaru somon esam ishq ichra emas aybkim,
Yo'qturur ishq ahliga ne sar, ne somon, ey rafiq!
Men kibi zulfu yuzung ishqida bo'lg'aymu yana
Kim, qilib sarishtasin holig'a hayron, ey rafiq?
Yig'lamoq birla g'am etti ishq Shohiyg'a nasib,
Bor sen bo'lg'il hamisha shodu xandon, ey rafiq!

Yor borib, qo'ydi jong'a dog'i furqat, ey rafiq,
Ko'ngluma kor etmasunmu dardi g'urbar, ey rafiq.
Nola qilsam tong emas, chun jon bila ko'nglumdadur,
Yuz tuman anduhu g'ussa, dardu mehnat, ey rafiq.
Vah, ne holatdur mangakim, ul mahi nomehribon,
Necha javr etkan soyi dey: "Oz bori mehnat, ey rafiq!"
O'lgali yetsa ishim, andin muruvvat anglamon,
Borcha xo'blar bor ekinmu bemuruvvat, ey rafiq?!
Lahzaye bedard emassen ishq ichida go'iyoy
Kim, azaldin dard keldi manga qismat, ey rafiq
Istama g'amgin ko'ngulni ishratobodingg'akim,
Xushturur g'amginliq anga, sanga - ishrat, ey rafiq.

Bevafoliq gar budurklim - ko'rdi Shohiydin xato,
Pand eshitkil: - tutma hechkim birla ulfat, ey rafiq! [9]

Dunyoviy ishq-muhabbat tarannum etilgan yuqoridagi g'azallar keltirilganidek, mavzu ko'lami jihatidan deyarli bir xil. Barchasida do'stga murojaat shaklida dunyo tashvishlaridan kuygan qahramonning iztiroblari yoritiladi. Qofiyadosh so'zlari bilan farqlanuvchi har ikki ijodkor g'azallarida vazn qo'llanilishi bir xil, ya'ni aruzning nisbatan yengilroq hisoblangan ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilon) -V- - /-V- - /- V - - /- V - vaznida. Baytlar esa hajm jihatidan Navoiyda ustunlik qiladi (9 bayt). Shohiy devonidagi ko'p she'rlar singari ushbu g'azallar 7 baytdan tashkil topgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Shohiy ham o'z davri sermahsul ijodkori. She'rlaridagi yengil ohang, vazn o'ynoqligi, qofiyadosh so'zlarning mohirona tanlanishi Navoiydek o'z davrining yetuk shoirlari nazaridan chetda qolmagan.

Shuni ham aytishimiz mumkinki, Shohiy faqatgina g'azallarga tatabbu' borasida Navoiyga ergashmagan. Devon nashriga kirmagan, ammo Abdug'afurov tomonidan aniqlangan muxammaslarning deyarli barchasi Navoiy g'azallariga taxmis shaklida yozilgan [10].

Navoiyda tasavvuf va dunyo, majoziy va dunyoviy ishq qorishiq holda qo'llanilgan bo'lsa, Shohiy ijodining asosiy mavzu ko'lami insoniy ishq-muhabbat, sevgi-sadoqat, ma'shuqa husnining madhu sanosi, visolga intilish, hijron uqubatlaridan azob chekish, haqiqiy oshiqning ichki dunyosini kuylash bo'ldi. Bunga sabab Sul-ton Mas'udning boshidan o'tkazgan ko'plab sinovli kunlari bo'lishi mumkin.

Husayniy ijodi singari Shohiy she'riy merosi haqida ham ayta olamizki, ijod namunalari deyarli barchasi, janr nuqtai nazaridan o'quvchi ko'z o'ngida yorqin taassurot qoldiradi. Ularning hammasida hayotsevarlik ruhi ustuvor. Tili esa sodda sof o'zbek tilida bitilgan bo'lib, ular nihoyatda yengil o'qiladi. Xalqchil uslub, bayon samimiyliyi, vazn yengilligi Shohiy she'rlarining xos belgilaridan deb ayta olamiz. Shoir she'rlarining juda ko'pchiligi sodda, ayni zamonda, mantiqan izchilki, tushunarlik jihatidan o'quvchi qalbga tezda ko'chadi. Yuqorida shunday o'rinlardan ba'zilarini Navoiydan ta'sirlanish aspektida keltirib tahlil ostiga olishga harakat qildik. Umumiy tomondan, ijodkor she'riyatini, janrlar ko'lami, Navoiyning bevosita va bilvosita ta'siri natijasida yaratilgan boshqa ijod namunalari o'rganish, tadqiq ostiga olish kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan o'rinlardan ekanligini alohida aytib o'tishimiz zarur.

ADABIYOTLAR

1. Абдуғафуров А. Султон Масъуд Мирзо Шоҳий. Девон. Тошкент: Истиклол нашриёти, 2001. – 104 б.
2. Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ 16 том. Тошкент: Фан нашриёти, 2000. – 246 б.
3. Фаройиб ус-сиғар. МАТ. 3 том. Тошкент: Фан нашриёти, 1988. – 575 б.
4. Наводир ун-нихоя. МАТ. 2 том. Тошкент: Фан нашриёти, 1987. – 622 б.
5. Мажолис ун-нафонс. ТАТ. 9 жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2013. – 450 б.
6. Бадойиъ ул-бидоя МАТ. 1 том. Тошкент: Фан нашриёти, 1987. – 689 б.
7. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Toshkent: Akademnashr, 2020. – 304 b.
8. Ҳамроева О. Теурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. – Тошкент: Букманй принт, 2022. – 256 б.
9. Мажолис ун-нафонс илмий-танқидий матн. Тузувчи: Ғаниева С. – Тошкент: УзССР, 1961. – 154 б.
10. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. va b.q. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – 520 b.
11. Алишер Навоий. МАТ. 13 том. – Тошкент: Fan, 2000. – 241 б.